



АХОЛИ ДАРОМАДИНИНГ О‘СИШИНING ИСТЕ‘МОЛГА ТА‘СИРИ ВА ДАРОМАДНИ ОШИРИШДАГИ СА‘Й-НАРАКАТЛАР

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalari

Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti 2-bosqich Iqtisodiyot yo‘nalishi talabasi

Xodjaqulov Islombek Karim o‘g‘li islomkhodjakulov@gmail.com

Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti 2-bosqich Iqtisodiyot yo‘nalishi talabasi

Ergashov Muxtor Abdug‘affor o‘g‘li muxtorergashov005@gmail.com

Aniq va tabiiy fanlar fakulteti 2-bosqich Amaliy matematika yo‘nalishi talabasi

Norbutayev Ulfat Muxiddin o‘g‘li n.u.muxiddinovich@gmail.com

Аnotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda aholi daromadining iste‘mol xarajatlariga ta‘siri nazariy va empirik jihatdan o‘rganiladi. Makroiqtisodiy darajada daromad va iste‘mol o‘rtasidagi bog‘liqlik Keyns, Fridman va Modilyani nazariyalari asosida tahlil qilinadi. Daromad va iste‘mol o‘rtasidagi miqdoriy bog‘liqlik korrelyatsion va regressiya tahlili yordamida baholanadi. Shuningdek, aholi daromadini oshirishga qaratilgan mamlakatimizdagi chora-tadbirlar xususan, kreditlash tizimi, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash va o‘zini o‘zi band qilish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari asosida daromad o‘shirishni barqarorlashtirish va iste‘mol faolligini oshirishga yo‘naltirilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Калит so‘zlar: aholi daromadi, iste‘mol xarajatlari, chegaraviy iste‘mol moyilligi, korrelyatsion tahlil, regressiya, kichik biznes, kreditlash, makroiqtisodiyot, O‘zbekiston.

Аннотация: В данной статье исследуется влияние доходов населения на потребительские расходы в Узбекистане с теоретической и эмпирической точек зрения. На макроэкономическом уровне взаимосвязь между доходом и



потреблением анализируется на основе теорий Кейнса, Фридмана и Модильяни. Количественная зависимость между доходом и потреблением оценивается с помощью корреляционного и регрессионного анализа. Кроме того, рассматриваются меры, направленные на увеличение доходов населения в нашей стране, в частности кредитная система, поддержка малого бизнеса и возможности самозанятости. На основе результатов исследования разработаны практические рекомендации по стабилизации роста доходов и повышению активности потребления.

Ключевые слова: доходы населения, потребительские расходы, предельная склонность к потреблению, корреляционный анализ, регрессия, малый бизнес, кредитование, макроэкономика, Узбекистан.

Abstract: This article examines the impact of household income on consumer expenditures in Uzbekistan from both theoretical and empirical perspectives. At the macroeconomic level, the relationship between income and consumption is analyzed based on the theories of Keynes, Friedman, and Modigliani. The quantitative link between income and consumption is evaluated using correlation and regression analysis. Furthermore, measures aimed at increasing household income in the country are considered, including the credit system, support for small businesses, and opportunities for self-employment. Based on the study results, practical recommendations have been developed to stabilize income growth and enhance consumption activity.

Keywords: household income, consumer expenditures, marginal propensity to consume, correlation analysis, regression, small business, credit, macroeconomics, Uzbekistan.



Krish

O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar milliy iqtisodiyotning barcha sohalarini qamrab olmoqda. Xususan, 2017-yildan boshlab joriy etilgan iqtisodiy liberallashtirish siyosati, soliq tizimini takomillashtirish, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash hamda aholining real daromadlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar iste'mol bozorini jadal rivojlantirishga xizmat qilmoqda. 2025-yilning dastlabki 9 oyi yakunlariga ko'ra O'zbekistonda aholi umumiy daromadlarining real o'sishi 8,4 foizni, jon boshiga daromadlarning real o'sishi esa 6,3 foizni tashkil etdi [2]. Ushbu ko'rsatkichlar mavzuning bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab kelayotganini yaqqol tasdiqlaydi. Biroq daromad o'sishi bir tekis kechmayapti. Eng boy va eng kambag'al hududlar o'rtasidagi daromad farqi 3,5 baravargacha kengaydi [2]. Bundan tashqari, aholining umumiy daromadlarida xorijdan pul o'tkazmalarining ulushi 21,5 foizga yetgan bo'lib, pul o'tkazmalaridagi o'sishsiz 8 ta viloyatda real daromadlar qisqargan bo'lardi [2]. Bu holat aholi daromadi va iste'mol o'rtasidagi bog'liqlikni chuqurroq o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Aholi daromadining o'sishi iste'mol talabini kengaytiradi, bu esa ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirib, iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Biroq ushbu bog'liqlikning mexanizmlari va miqdoriy parametrlari O'zbekiston sharoitida yetarlicha o'rganilmagan. Ushbu bo'shliqni to'ldirish maqolaning asosiy ilmiy zaruratini belgilaydi.

Aholi daromadi va iste'mol: nazariy asoslar

Ingliz iqtisodchisi Jon Meynard Keyns 1936-yilda nashr etilgan "*Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi*" asarida daromad va iste'mol o'rtasidagi bog'liqlikni birinchi marta ilmiy jihatdan asoslab berdi. Uning modelida iste'mol (C) quyidagi formula orqali ifodalanadi: $C = a + bY$, bu yerda a avtonom iste'mol (daromaddan



qat'i nazar sarflanadigan minimal xarajatlar), b chegaraviy iste'mol moyilligi (MPC), Y esa joriy daromaddir. Keyns fikricha, MPC har doim 0 dan 1 gacha bo'lib, daromad oshishi bilan iste'mol ham oshadi, ammo daromadga nisbatan kamroq miqdorda ya'ni aholi qo'shimcha daromadining bir qismini doimo jamg'armaga ajratadi. Yana shuningdek boshqa bir iqtisodchi o'zining aholi daromadi haqida o'zining fikrlarini keltirib o'tgan. Nobel mukofoti sovrindori Milton Fridman 1957-yilda ilgari surgan doimiy daromad gipotezasiga ko'ra, aholi iste'molini joriy daromad emas, balki uzoq muddatli kutilayotgan — ya'ni "doimiy" daromad belgilaydi. Fridman daromadni ikki qismga ajratadi: doimiy daromad (muntazam va barqaror) va vaqtinchalik daromad (kutilmagan, tasodifiy). Uning ta'kidlashicha, aholi vaqtinchalik daromad o'zgarishlariga iste'molini deyarli moslashtirmaydi, chunki odamlar o'z turmush darajasini uzoq istiqbolda barqaror ushlab turishga intiladi. Bu nazariya, xususan, davlatning bir martalik soliq imtiyozlari va subsidiyalarining iste'molga ta'siri cheklangan bo'lishini izohlab beradi. Yana bir italiyalik iqtisodchi Franko Modilyani 1954-yilda Richard Brumberg bilan hamkorlikda hayot sikli nazariyasini ishlab chiqdi. Ushbu nazariyaga ko'ra, individ o'zining butun umri davomida daromadini tekis taqsimlash, ya'ni iste'mol darajasini barqaror ushlab turish maqsadida moliyaviy qarorlar qabul qiladi. Yoshlik davrida odam daromadidan ko'proq sarflaydi va qarz oladi, o'rta yoshda daromad yuqori bo'lgani sababli jamg'arma shakllantiradi, keksalikda esa to'plangan jamg'armalarni sarflaydi. Modilyani nazariyasi nafaqat iste'mol xatti-harakatini, balki jamg'arma va pensiya tizimlarini ham tushuntirishda keng qo'llaniladi.

Daromad o'sishining iste'molga ta'siri

Aholi daromadining o'sishi iste'mol xarajatlariga bir necha mexanizmlar orqali ta'sir ko'rsatadi. Ushbu mexanizmlarni to'liq tushunish makroiqtisodiy siyosatni samarali shakllantirish uchun zaruriy asos bo'lib xizmat qiladi. Daromad



o'sishining iste'molga ta'siri faqat to'g'ridan to'g'ri emas, balki multiplikativ tarzda ham namoyon bo'ladi. Keynes multiplikatori quyidagi formula orqali ifodalanadi.

$$m = 1 / (1 - MPC)$$

Masalan, MPC = 0,75 bo'lsa, multiplikator $m = 1 / (1 - 0,75) = 4$ ga teng bo'ladi. Bu shuni anglatadiki, daromad 1 million so'mga oshsa, iqtisodiyotdagi umumiy iste'mol talabi 4 million so'mga ko'payadi. Chunki birinchi shaxs daromadining 75 foizini sarflaydi, bu pul ikkinchi shaxsning daromadiga aylanadi, u ham 75 foizini sarflaydi va hokazo zanjir davom etadi. O'zbekistonda kam daromadli aholi qatlamining MPC ko'rsatkichi yuqori (0,85—0,90) ekanligi inobatga olinsa, ushbu guruhga yo'naltirilgan ijtimoiy to'lovlar va ish haqi oshirishning multiplikativ ta'siri ayniqsa kuchli bo'ladi. Shu sababli past daromadli aholini qo'llab-quvvatlash nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy jihatdan ham samarali siyosat hisoblanadi.

Engel qonuni: XIX asrda nemis statistik Ernst Engel tomonidan kashf etilgan qonuniyatga ko'ra, daromad oshishi bilan oziq-ovqatga sarflanadigan xarajatlar ulushi kamayib, boshqa tovar va xizmatlarga sarflar ko'payib boradi. Boshqacha aytganda, daromad o'sishi bilan iste'molning miqdori emas, balki sifati va tarkibi o'zgaradi. Ushbu qonuniyat uch bosqichda namoyon bo'ladi. Birinchi bosqichda past daromad sharoitida aholi daromadining asosiy qismini oziq-ovqat va zaruriy ehtiyojlarga sarflaydi. Ikkinchi bosqichda o'rta daromad sharoitida kiyim-kechak, uy-joy, ta'lim va sog'liqni saqlashga sarflar o'sadi. Uchinchi bosqichda yuqori daromad sharoitida sayohat, ko'ngilochar xizmatlar, luksus tovarlar va moliyaviy xizmatlar iste'moli kengayadi. O'zbekistonda so'nggi yillarda daromadlar o'sishi bilan xizmat ko'rsatish sektori, savdo aylanmasi va import hajmining oshishi aynan Engel qonunining amalda namoyon bo'lishi sifatida baholanishi mumkin.



Statistik malumotlar asosida korelyatsion va regression taxlil

Klassifikator		2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016
Республика Узбекистан		2192.8	2928.9	3501.8	4175.1	4759.6	5410.6	6215.9
2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
7946.	9799.	11655.	12888.	15773.	18722.	21396.	25671.	29935.
1	4	3	6	9	4	2	6	5

Manba stat.uz saytidan aholi umumiy daromadi o'lchov birligi ming so'mda

Ushbu statistikada ko'rishingiz mumkinki bu 2010-yildan 2025-yilgacha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadi hisoblanib bu 2010-yilda 2 million 192 ming 800 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa 2025-yilga kelib bu ko'rsatgich 29 million 935 mingni tashkil etmoqda. Taxminiy hisoblaganda norasmiy malumotlarda aholi istemol xarajatlarini hisoblaganda 2010-yilda 1 million 800 ming so'mni va 2025 yilga kelib 28 millionni tashkil etmoqda. "Hisob-kitob natijalariga ko'ra, aholi daromadi va iste'mol xarajatlari o'rtasida juda kuchli musbat bog'liqlik mavjud ($r \approx 0.997$). Regression tahlil natijalari daromad oshishi iste'mol hajmining ham mutanosib ravishda ortishiga olib kelishini ko'rsatdi. Bu esa aholining daromad o'sishi asosan iste'mol xarajatlari orqali iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatishini anglatadi." Regression tahlilga ko'ra:

$$C = -300 + 0.95Y$$

Bu regression modelda shuni ko'rish mumkinki daromad 1 birlikka oshsa iste'mol xarajatlari 0.95 birlikka oshmoqda.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. <http://gazeta.uz/oz/2025/05/05/incomes/>



2. Friedman, M. (1957). A Theory of the Consumption Function. Princeton: Princeton University Press.
3. <https://kun.uz/33661179>
4. Sh.Shodmonov “Iqtisodiyot Nazariyasi” darslik o’quv qo’llanma.
5. Modigliani, F., & Brumberg, R. (1954). Utility Analysis and the Consumption Function. Post-Keynesian Economics. Rutgers University Press.
6. 1. Keynes, J.M. (1936). The General Theory of Employment, Interest and Money. London: Macmillan.
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Engel_qonuni
8. O’zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo’mitasi <https://stat.uz/uz/>